XALQ DEPUTATLARI SHAROF RASHIDOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-011-3-46-K/24 Sharof Rashidov tumani

Sharof Rashidov tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-03-032-3-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-20-08-02-39/189-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Sharof Rashidov tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 118 921 097,0 ming so‘m va xarajatlari esa 118 921 097,0 ming so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Sharof Rashidov tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 756 000,0 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2025-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar meyori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek tuman budjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1 925 148,0 ming so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 6-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Ergashev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (I.Nazarov), tuman soliq inspeksiyasi (M.Tursunmuratov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Azimov)ga, mazkur qaror “Jizzax tongi.uz” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Sharof Rashidov tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (O.Abdullayev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

XOLBUTAYEV
MAXMUD
PARSAMATOVICH

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-011-3-46-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
JAMI		**331 363 567**	**118 921 097**
1	Foyda solig‘i	19 125 000	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	17 444 953	17 444 953
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	105 384 000	0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 590 000	1 590 000
5	Aksiz solig‘i jami	24 951 000	748 530
5,1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*	0	*0*
5,2	*pivo*	0	*0*
5,3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	24 951 000	*748 530*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 695 000	8 695 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	13 729 164	13 729 164
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	25 070 000	25 070 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	31 065 450	31 065 450
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2 624 000	16 231 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 653 000	3 643 000
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	338 000	338 000
13	Davlat boji	6 841 000	0
14	Yig‘imlar	2 887 000	0
15	Jarimalar	18 600 000	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	366 000	366 000
17	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	47 000 000	0

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-011-3-46-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yilda umumdavlat soliqlaridan Sharof Rashidov tuman mahalliy budjetiga ajratmalar meyori

foiz hisobida

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma meyori
1	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i****	Sharof Rashidov tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
2	**Foyda solig‘i*****	Sharof Rashidov tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
3	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Pivo**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
5	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**	Sharof Rashidov tuman byudjetiga	YST	0%
			HST	3%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	97%
6	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
7	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
8	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
9	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
10	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%

11	**Aylanmadan soliq**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	100%
		Viloyat budjetiga	0%
12	**Davlat boji**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	0%
		Viloyat budjetiga	100%
13	**Jarima**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	0%
		Viloyat budjetiga	100%
14	**Yig‘imlar**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	0%
		Viloyat budjetiga	100%
15	**Davlat aktivlarini sotishdan tushum (Xususiylashtirish)**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	50%
		Viloyat budjetiga	50%
16	**Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum**	Sharof Rashidov tuman budjetiga	50%
		Viloyat budjetiga	50%

Izoh: *HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar*

* *Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat byudjetlariga ajratma qilinadi.*

** *Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-011-3-46-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
	Xarajatlar miqdori, jami	**118 921 097,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	**34 871 907,0**
	shundan:	
	“Mening maktabim”	*3 490 846,0*
2	Madaniyat bo‘limi	**1 402 247,0**
3	Musiqa maktab	**3 219 396,0**
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	**5 802 414,0**
5	Sport bo‘limi	**5 821 541,0**
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	**1 677 401,0**
7	Veterinariya bo‘limi	**1 168 101,0**
8	Fermer xo‘jaliklarida bo‘xgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	**1 125 444,0**
9	Irrigatsiya bo‘limi (suv yetkazib berish hizmati DM)	**1 304 243,0**
10	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	**2 388 322,0**
11	Hokimyat	**39 825 550,0**
	shundan:	
	Tuman hokimligi (aparat)	*2 361 185,0*
	Hokim yordamchilari	*5 494 699,0*
	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	*267 527,0*
	Oila va xotin qizlar yetakchilari	*2 377 523,0*
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*80 365,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	*23 100,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*24 274 260,0*
	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	*3 021 743,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 925 148,0*
12	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	**701 658,0**
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*58 281,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*643 377,0*
13	Obodonlashtirish boshqarmasi	**19 612 873,0**
14	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-011-3-46-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Sharof Rashidov tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy budjetlarning jami daromadlari**	**Shundan,**		**Mahalliy budjet xarajatlari**
		Mahalliy budjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
Sharof Rashidov tumani	118 921 097,0	118 921 097,0	0,0	118 921 097,0

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-011-3-46-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Sharof Rashidov tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Sharof Rashidov tumani	**756 000,0**

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-011-3-46-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (ming.so‘mda)
1	Bobur MFY	0,80	52 272,00
2	Bo‘ston MFY	0,95	62 073,00
3	G‘ozg‘ontepa MFY	0,93	60 766,20
4	Yoyilma MFY	0,8	52 272,00
5	Yoshlik MFY	0,9	58 806,00
6	Jizzaxlik MFY	1,1	71 874,00
7	Ziyokor MFY	1,1	71 874,00
8	Istiqlol MFY	1	65 340,00
9	Qangli MFY	1	65 340,00
10	Qatortol MFY	1	65 340,00
11	Katta qishloq MFY	1	65 340,00
12	Qaxramon MFY	1	65 340,00
13	Qorayontoq MFY	0,8	52 272,00
14	Kuyovboshi MFY	1	65 340,00
15	Qulpisar MFY	0,70	45 738,00
16	Ko‘rpasoy MFY	0,72	47 044,80
17	Qo‘shko‘prik MFY	1,1	71 874,00
18	Madaniyat MFY	0,8	52 272,00
19	Mo‘lkanlik MFY	1	65 340,00
20	Nonisangil MFY	0,8	52 272,00
21	Nurafshon MFY	0,85	55 539,00
22	Oqtosh ota MFY	0,75	49 005,00
23	Olmachi MFY	1	65 340,00
24	Pastki So‘loqli MFY	1,1	71 874,00
25	Ravot MFY	0,8	52 272,00
26	Ravalliq MFY	1,1	71 874,00
27	Samarqandquduq MFY	0,72	47 044,80
28	Saraylik MFY	1,1	71 874,00
29	Sovungarlik MFY	1,1	71 874,00
30	So‘g‘diyona MFY	1,04	67 953,60

31	Taraqqiyot MFY	0,9	58 806,00
32	Tinchlik MFY	0,8	52 272,00
33	Toqchiliq MFY	1	65 340,00
34	Toshkentlik MFY	1,04	67 953,60
35	Tuyoqli MFY	1,04	67 953,60
36	Umar MFY	0,8	52 272,00
37	Uch tepa MFY	1,04	67 953,60
38	Fayzobod MFY	1,04	67 953,60
39	Xavastlik MFY	1,1	71 874,00
40	Xayrobod MFY	1,1	71 874,00
41	Xalqobod MFY	1,1	71 874,00
42	Sharilloq MFY	0,8	52 272,00
43	Eski Toshkentlik MFY	1,04	67 953,60
44	Yakka qayrag‘och MFY	1,04	67 953,60
45	Yangi xayot MFY	1	65 340,00
46	Yangi-Diyor MFY	1	65 340,00
47	Yangiobod MFY	0,93	60 766,20
48	Yaxtanlik MFY	1,04	67 953,60

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-011-3-46-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Bobur MFY	0,9	370,66
2	Bo‘ston MFY	1	411,84
3	G‘ozg‘ontepa MFY	0,9	370,66
4	Yoyilma MFY	0,9	370,66
5	Yoshlik MFY	1	411,84
6	Jizzaxlik MFY	1,2	494,21
7	Ziyokor MFY	1,2	494,21
8	Istiqlol MFY	1	411,84
9	Qangli MFY	1	411,84
10	Qatortol MFY	1	411,84
11	Katta qishloq MFY	0,75	308,88
12	Qaxramon MFY	1	411,84
13	Qorayontoq MFY	0,9	370,66
14	Kuyovboshi MFY	1	411,84
15	Qulpisar MFY	0,7	288,29
16	Ko‘rpasoy MFY	0,8	329,47
17	Qo‘shko‘prik MFY	1,2	494,21
18	Madaniyat MFY	0,7	288,29
19	Mo‘lkanlik MFY	1,2	494,21
20	Nonisangil MFY	0,8	329,47
21	Nurafshon MFY	0,9	370,66
22	Oqtosh ota MFY	0,8	329,47
23	Olmachi MFY	1,1	453,02
24	Pastki So‘loqli MFY	1,1	453,02
25	Ravot MFY	0,8	329,47
26	Ravalliq MFY	1	411,84

27	Samarqandquduq MFY	0,8	329,47
28	Saraylik MFY	1,2	494,21
29	Sovungarlik MFY	1,1	453,02
30	So‘g‘diyona MFY	1	411,84
31	Taraqqiyot MFY	0,9	370,66
32	Tinchlik MFY	0,9	370,66
33	Toqchiliq MFY	1	411,84
34	Toshkentlik MFY	1,2	494,21
35	Tuyoqli MFY	0,8	329,47
36	Umar MFY	0,8	329,47
37	Uch tepa MFY	1	411,84
38	Fayzobod MFY	0,9	370,66
39	Xavastlik MFY	1,2	494,21
40	Xayrobod MFY	1	411,84
41	Xalqobod MFY	1	411,84
42	Sharilloq MFY	0,9	370,66
43	Eski Toshkentlik MFY	1,1	453,02
44	Yakka qayrag‘och MFY	1,1	453,02
45	Yangi xayot MFY	1	411,84
46	Yangi-Diyor MFY	1	411,84
47	Yangiobod MFY	0,9	370,66
48	Yaxtanlik MFY	1,1	453,02